

OILAVIY BOLALAR UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**To`raqulov Laziz Tirkashevich, katta o`qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy davlatlar olimlarining mehribonlik uyi haqida fikrlari, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari, oilaviy mehribonlik uylarini tashkil etilishi, bolalar salbiy ijtimoiy xodisalarni yuzaga keltirish sabablari, ota-onalar, milliy gvardiya faoliyati, Vazirlar maxkamasi qarorlari va farmoyishlari jamlangan.

Kalit so`zlar: Mehribonlik uyi, oila tipidagi mehribonlik uyi, mehr-meruvvat, hayr-saxovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligi, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuvi, pedagogika-psixologiya, yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, yetimlik va ijtimoiy etimlik va shu kabi tushunchalar o`rin olgan.

Bugungi kunning talabi xamda dolzarb vazifalaridan biri bu yetim va qarovchisini yuqotgan bolalar sog`ligini, ma`naviy axloqiy jihatdan normal rivojlanishini ijtimoiy ximoya qilishdan iboratdir. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar davomida tarbiyalanuvchilar shaxsiy xujjatlaridan shu narsa ko`zga tashlanadiki. 65 foiz miqdordagi bolalarda somatik va ruxiy kasalliklar borligi ko`rsatib o`tilgan. Organizmning funktsional chekinishi 1-3 sinflarda 10 foizgacha, IV-VIII sinflarda 30 foiz, IX-XI sinflarda 70 foizgacha bo`lgan surunkali kasalliklar bilan kasallangan bolalar uchraydi. Yuqoridagi 3 guruxdagi tarbiyalanuvchilarni oilada tarbiyalanayotgan bolalar bilan solishtirib ko`rilganda bunday kasallikka chalingan bolalar nisbati 10 foizni tashkil etadi. bu xam bo`lsa. asosan organizmning funktsional buzilishi kabi kasalliklardan iboratdir. Respublikamiz mustakillikni qo`lga kiritgandan so`ng, inson shaxsiga bo`lgan munosabat keskin o`zgardi. Jamiyatimiz a`zosi bo`lgan xar bir shaxs taqdiriga aloxida e`tibor berilmoqda. Ayniqsa. ma`lum bir sabalarga ko`ra, o`z ota-onasidan, yaqin kishilari mexridan maxrum bo`lgan yetim va qarovsiz bolalarga ta`lim va tarbiya berish. pedagogika va psixologiya, xamda ijtimoiy psixologiya fanlarining eng dolzarb muammolaridan biri ekanligi shubxasizdir. Zotan. kelajagi buyuk davlatni bunyod qilish uchun xar qanday davlatning asosiy bo`gini bo`lmish oilalarning mustahkamligini. uning jamiyat oldagi asosiy funktsiyalaridan biri bo`lmish tarbiyaviy funktsiyasini to`la-tukis bajarishga, unda dunyoga kelayotgan bolalarning to`liq oilalarda. ota-ona mehriga emin-erkin qonib jamiyatning yetuk fuqarosi sifatida shakllanib ulgayishga sharoit yaratish lozim bo`ladi. Buning uchun, eng avvalo, bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar sonini keskin kamaytirish. ularni mehribonlik uylarida emas. balki o`z ota-onalari quchogida, o`z yaqinlari atrofida ulg`ayishini ta`minlash mustakil respublikamizning istikbolini va ma`naviyatini ta`minlovchi asosiy omillardan xisoblanadi.

Shu boisdan bir qator chet ellik, hamdustlik davlatlari xamda O`zbekiston olimlari tomonidan ushbu muammo yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari

o'tkazilgan. Xususan. P.Andresyan, A.Vinogradova, P.Kim, A.Lobanov, E.Semenova, S.O.Tursunov, I.O.Xaydarov kabi tadqiqotchilar ishlarida yetim va qarovsiz bolalar bilan ishlash. ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni oilaviy xayotga tayyorlash. jamiyatning tula qonli a'zosi sifatida tarbiyalash kabi qator masalalar ko'rib chiqilgan.

Bugungi kunning talabi xamda dolzarb vazifalaridan biri bu yetim va qarovchisini yuqotgan bolalar sog'ligini, ma'naviy axloqiy jixatdan normal rivojlanishini ijtimoiy ximoya qilishdan iboratdir. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar davomida tarbiyalanuvchilar shaxsiy xujjatlaridan shu narsa ko'zga tashlanadiki. 65 foiz miqdordagi bolalarda somantik va ruxiy kasalliklar borligi ko'rsatib o'tilgan. Organizmning funktsional chekinishi 1-3 sinflarda 10 foizgacha, IV-VIII sinflarda 30 foiz, IX-XI sinflarda 70 foizgacha bo'lgan surunkali kasalliklar bilan kasallangan bolalar uchraydi. Yuqoridagi 3 guruxdagi tarbiyalanuvchilarni oilada tarbiyalanayotgan bolalar bilan solishtirib ko'rilganda bunday kasallikka chalingan bolalar nisbati 10 foizni tashkil etadi. bu xam bo'lsa. asosan organizmning funktsional buzilishi kabi kasalliklardan iboratdir. Shu yoshdagi tarbiyalanuvchilarda esa 70 foizida ko'pincha oliy va nerv sistemasi faoliyatining izdan chiqqanligi sababli ruxiy kamchiliklardan tashvish. qurqinch. xadiksirash. alaxsirash, badjaxillik kabi asoratli asab kasalliklari uchrashligi aniqlangan. Ayniqsa bu xolatlar o'smir yoshdagilarda 35 foizni. o'spirinlarda esa 18-22 foizni tashil qiladi. Jamiyatning barcha soxalari faol qayta qurilayotgan xozirgi davrda tarbiyalanuvchilar jamoasida sog'lom ruxiy muxit yaratish san'atini egallagan odamlarga katta extiyoj sezilmoqda.

Mexribonlik uylarida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish davlat hamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yuqotganda, shuningdek, boquvchisidan maxrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega». O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida Yuqoridagi qonunlar fikr yuritishni yanada oydinlashtiriladi. «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni ragbatlantiradi» deyilgan.[4]

Dunyo tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston rahbariyati Mehribonlik uylarida mavjud holatni o'rganib chiqib tubdan isloh qilish topshirig'i yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.08.2021 yildagi PQ-5215-sonli qarori. Eslatib o'tamiz, quyida qayd etilgan ma'lumotlar prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkentdagi 21-sonli Mehribonlik uyiga tashrifi va undan keyin o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida taklif etilgan masalar.

2021 yil 9 avgust Milliy gvardiya mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga qaytarishga ko'maklash topshirig'i belgilab berildi. Milliy gvardiya prezident qarori bilan o'ziga birlashtirilgan Mehribonlik uylaridagi bolalarni ota-onalariga qaytarish, vasiy tayinlash va farzandlikka olishga ko'maklashadi. O'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarning muammolarini o'rganish va hal etish uchun «Mehr daftari» tizimi joriy qilinadi.

Prezident 2021-yil 9 avgust kuni «Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorni imzolagan edi. Shunga koʻra, «Mehribonlik» uylari (16 ta, 1 541 nafar bola), Bolalar shaharchalari (4 ta, 236 nafar bola), oilaviy bolalar uylari (5 ta, 46 nafar bola) va Sogʻliqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (13 ta, 506 nafar bola) Milliy gvardiyaga birlashtiriladi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organ «SOS — Oʻzbekiston bolalar mahallalari» uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik oʻrnatadi.

Ushbu chora-tadbirlar yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini taminlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilinmoqda.

Milliy gvardiyaga quyidagi qoʻshimcha vazifalar yuklatilgan:

1. Oʻquv-tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qoʻllash choralari koʻrish;

2. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash;

3. Oʻquv-tarbiya muassasalarida sifatli talim va tarbiya jarayonini yoʻlga qoʻyishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga koʻmaklashish;

4. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar uchun manaviy-marifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

5. Zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sogʻlom, manaviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish va jalb etish.

Milliy gvardiya tarkibida tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etishga masul boʻlgan Milliy gvardiya qoʻmondonining oʻrinbosari lavozimi va Jamoat xavfsizligi universitetida yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasini tashkil etildi.

Oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) 25 yoshga toʻlmagan yetim bolalarga Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchi va xodimlari birlashtiriladi. Birlashtirilgan harbiy xizmatchi va xodimlar vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda bir oyda kamida bir marotaba yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar bilan suhbatlar oʻtkazish asosida ularning talim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini oʻrganadi.

2021 yil 15 avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni uy-joy bilan taminlashning quyidagi tartibi oʻrnatilgan: oʻzlariga birlashtirilgan turar joyga ega boʻlmagan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga ular 18 yoshga toʻlgan yilda koʻp kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam boʻlmagan 1 xonali, voyaga yetgan

yetim bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda, 50 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 2 xonali kvartiralar ajratiladi. Bunda, mazkur toifaga kiruvchi nogironligi bo'lgan bolalarga kvartiralar ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi;

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylar mulkka egalik qilish huquqi asosida, biroq ular 30 yoshga to'lgunga qadar uy-joyni sotish, hadya qilish yoki garovga qo'yish yoxud ijaraga berish hamda uy-joyda o'zi va oila a'zolari (eri yoki xotini, farzandlari)dan tashqari boshqa fuqarolarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish huquqisiz ajratiladi. Bunda, yetim bola yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaning asoslantirilgan murojaati asosida mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joyning umumiy maydonini kengaytirish va mazkur badda nazarda tutilgan talablarni saqlab qolish sharti bilan sotishga ruxsat beriladi;[6]

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 6-bob. Kutilayotgan natijalar: deb nomanadi. va unda quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Mehribonlik uylari bitiruvchilari bandligi to'laqonli ta'minlanadi, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishda samarali mexanizmlar joriy etiladi;

2. Yoshlarning madaniy saviyasini oshirish uchun kutubxonalar, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, istirohat bog'lari va boshqa madaniyat muassasalari soni bosqichma-bosqich oshiriladi;

3. Yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining sig'imi 30 foizga oshiriladi;

4. Mahallalarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

5. Barcha hududlarda IT-parklar barpo etiladi, tuman (shahar)larda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi, "Bir million o'zbek dasturchi" loyihasi asosida 200 mingga yaqin yoshlar o'qitiladi;

6. Yoshlarning sifatli, tezkor va arzon internet xizmatlaridan foydalanishi uchun sharoitlar yaratiladi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini 2 baravar o'stirish ta'minlanadi;[9]

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Oila tipidagi bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar ijtimoiy jamiyatga moslashishlari uchun barcha ijtimoiy institutlar oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish hamda Vazirlar maxkamasining qarorlarini hayotga tadbiiq qilish va bolalarni vasiylikka olgan oilalardagi ota-onalarning xuquqiy, pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish, bola asrab olgan oilalar bilan do'stona aloqa o'rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo'lish, ularni kasb hunarga yo'naltirish ishlariga mehr bilan astoydil, chindildan yondashsalar, bola asrab olgan oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab – qo'vvatlash ishlarini real, kompleks nazorat qilinsa ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori. Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.

3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika darslik. «Toshkent»2009,
4. Berns R. Razvitiya Ya-kontseptsii i vospitaniya. M. 1986 s. 159
5. Абдурасулов, Р. А., & Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
6. Абдурасулов, Р. А., Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
8. Karshibaeva, G. (2021). Диагностика суицидального поведения у подростков. *Вестник интегративной психологии*, (22), 84-89.
9. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.